

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 468 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqov, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlal Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi	6
Muxiddin Kalonov , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
Jumayev Olimjon Sadulloevich , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari	18
Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish	27
Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi	34
Mamaraximov Bekzod Erkinovich , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili	50
Berdiyev Anvar Abduraxmonovich , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati	56
G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish	61
Olimjanova Nigora Alisherovna , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliya bozorining roli.....	65
Saydirasulov Laziz Alimovich , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar	71
Tulayev Mirzakul Salamovich , kafedra dotsenti; Axmedov Akbarali Sultonmurodovich , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций	78
Урдабаев Жарылкап Ермекбаевич , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
Махмудов Носир Махмудович , д. э. н., профессор; Фозилова Фирангиза Комиловна , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali foydalanish zarurati.....	89
Sherali Xolliyev , kafedra o'qituvchisi	
Turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni	94
Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
Xakimov Ziyodulla Axmadovich , dotsent; Axmadova Rayxona Jasurbek qizi , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
Abdiyeva Flora Botir qizi , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar	114
Abdullayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi	
Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va monetar qoidalaridan foydalanishning nazariy jihatlari	119
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country	125
Sanakulova Barnogul Rizakulovna , Doctor of Economic Science, Professor;	
Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli , Senior researcher	
Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	



Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution.....	133
Mirziyo Sodikov Odiljon ogli	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili	138
Ro'zmamatov Abbos Tolibjon o'g'li, magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish	144
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li, tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida	151
Sharifi Ahmad Sakhrob, mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	156
Суюнова Фотима Баходир кизи, базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognozi	161
Xatamov Nurbek Ochildiyeovich, erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'ri.....	169
G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi, doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане	174
Жуманиязова Феруза, PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalb qilish imkoniyatlari.....	179
Mamatov Bahromjon Shavkatovich, dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari	184
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna, mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (PhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'ri.....	190
Nilufar Sharipova, PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar	197
Nurillayev Jamoliddin Yarashevich, doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
O'roqov Mamurali Odil o'g'li, tayanch doktorant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi	208
Razzaqov Jasur Hamraboyevich, dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
Рузиева Дилноза Абдусаматовна, независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari	216
Saydullayev Shaxzod Sherzodovich, PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения	222
Хажиев Бахтиёр Душабоевич, dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari	227
Adizov Sardor Rashidovich, mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	231
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана	243
Мирзахалилова Азизахон Алишеровна, докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutsional investorlar faolligini oshirish	249
Sultanov Maxmud Axmedovich, dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'ri.....	254
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, PhD; Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li, tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики	259
Отакулов Махамаджон Каримович, PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	264
Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li, PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
Eshmatov Sanjar Ashirqulovich, mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	
O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari	272
Gadoyev So'hrob Jumakulovich, PhD, dotsent	
Влияние инвестиционной политики на инновационную деятельность в Республике Корея.....	277
Алимова София Розумбаевна, независимый исследователь	
Hududlarda oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'nalishlarini takomillashtirish.....	282
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich, tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potentsialni rivojlantirish.....	290
N. N. Ismatullayeva, tayanch doktorant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili	293
Ollokulova Feruza Mansurovna, PhD	



Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
Shakarova Difuza Ruzimuratovna , tayanch doktorant	
Формирование кредитного портфеля современного коммерческого банка.....	304
Жураева Нодира Фузулий кизи , ассистент кафедры	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'urtalashni takomillashtirish yo'llari	310
G. Abduvosidova , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
Nazarov Shohbek Isroilovich , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	320
Mamatov Axmetjon Atajanovich , professor; Allaberganov Zakir Gayibovich , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budjetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari	327
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Eshonqulov Asliddin Mamatmurod o'g'li , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	330
Norov Akbar Ruzimamatovich	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi	335
Xoliqov Ulug'bek Rustamovich , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba	341
N.N.Ro'ziyev	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalb qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
Astanov Sherzod Rustamovich , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
Nosirova Charos	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari	364
Irgasheva Gulbahor Sodiqovna , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonlarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari	369
Abduxamidova Gulxayo , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili	374
Xatamov Nurbek Ochildiyevich , erkin tadqiqotchi	
Международный опыт развития регионов путем привлечения инвестиций через рынок капитала	380
Дадаханова Саида Махаммаджон кизи , докторант	
Искусственный интеллект как инструмент управления человеческими ресурсами	386
Хайдарова Малика Шакирджановна , преподаватель кафедры	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili	396
S.T.Toshaliyeva , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyati va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
Ruzibayev Jahongir Nodirovich , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
Nabiyev Feruz Nurmurodovich , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish	412
Imomova Nodira Shavkatovna tadqiqotchi, Sultonov Mansur Qilichevich PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
Xashimova Naima Abitovna , i.f.n., professor; Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
M.A.Saparova , talaba	
Catalyzing Sustainable Consumer Choices: A Study of Retail Advertising Strategies for Green Development.....	425
Karimova Nafisabonu Djamshidovna , PhD	
Temir yo'l transport tarmog'ining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	433
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich , DSc.	
Tashqi mehnat migratsiyasi sohasidagi davlat siyosatining yevropa amaliyoti.....	439
Askarov Zoxidjon Sadikjanovich , Yuridik fanlar falsafa doktori	
Влияние антикоррупционного просвещения на национальную идентичность государства	445
Моховоров Дмитрий Анатольевич , кандидат юридических наук, доцент	
Общность и специфика социальных подходов современных просветителей XX века	
Абдурахмана Ташканди и Абдуллы Авлони.....	449
Абборхон Асатуллоев , философия доктора (PhD)	
O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda naqd pulsiz hisob-kitoblarning o'rni	453
Nilufar Zikirullaeva Dilmurod qizi , PhD	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda bank xazinalaridan kompleks foydalanish zarurati va amaliyoti.....	461
Xolmamatov Farhodjon Kubayevich , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor	



BANKLAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA BANK ZAXIRALARIDAN KOMPLEKS FOYDALANISH ZARURATI VA AMALIYOTI



Xolmamatov Farhodjon Kubayevich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarida kreditlarni tasniflashning nazariy asoslari, banklarda kredit portfelini tasniflash amaliyoti va ularga zaxira tashkil etish tartibi chuqur tahlil qilingan va o'rganilgan. Maqolada O'zbekiston Respublikasida kreditlarni tasniflash va ularga zaxira tashkil etish bo'yicha ilmiy xulosa va amaliy takliflar berilgan.

Shuningdek, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda banklarda tashkil etiladigan ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxiralarni shakllantirish zarurati va undan foydalanish amaliyoti tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: standart kreditlar, substandart kreditlar, qoniqsiz kreditlar, shubhali kreditlar, umidsiz kreditlar, kredit riski, diversifikatsiya, kredit qo'yilmalari, bank kreditlari, muammoli kreditlar, zaxiralar.

Abstract: In this article, the theoretical basis of the classification of loans in commercial banks, the practice of classifying the loan portfolio in banks and the procedure for creating a reserve for them are deeply analyzed and studied. The article provides a scientific conclusion and practical suggestions on the classification of loans in the Republic of Uzbekistan and the creation of a reserve for them.

Also, the necessity of formation of reserves against possible losses organized in banks in ensuring the financial stability of banks and the practice of its use have been researched.

Key words: standard loans, substandard loans, unsatisfactory loans, doubtful loans, bad loans, credit risk, diversification, loan deposits, bank loans, problem loans, reserves.

Аннотация: В данной статье глубоко анализируются и изучаются теоретические основы классификации кредитов в коммерческих банках, практика классификации кредитного портфеля в банках и порядок создания резерва по ним. В статье даны научный вывод и практические предложения по классификации кредитов в Республике Узбекистан и созданию резерва по ним.

Также исследована необходимость формирования резервов на возможные потери, организованных в банках для обеспечения финансовой устойчивости банков и практика его использования.

Ключевые слова: стандартные кредиты, субстандартные кредиты, неудовлетворительные кредиты, сомнительные кредиты, безнадежные кредиты, кредитный риск, диверсификация, кредитные вложения, банковские кредиты, проблемные кредиты, резервы.

KIRISH

O'zbekistonda bank tizimi islohotlari hal qiluvchi bosqichga qadam qo'ydi, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmonning qabul qilingani buning isbotidir. Farmonda tijorat banklari oldiga qo'yilgan asosiy vazifa ularni kapitallashtirish hamda davlat ulushi mavjud bo'lgan banklarni xususiyashtirish, bunga birinchi navbatda xorijiy investorlarni jalb qilishdan iborat ^[1].

Hozirgi globallashuv sharoitida bank tizimi va tijorat banklarining moliyaviy jihatdan barqarorligi, moliyaviy resurslarning samarali ishlatilishi, yo'qotishlarni oldini olish maqsadida tashkil etiladigan turli xil zaxiralar, xususan, muammoli kreditlarni qoplash uchun tashkil etiladigan maxsus zaxiralar, ularning normalarda tashkil etilishi barqaror bank faoliyatining garovidir. Ayniqsa, kreditlarni tasniflash va ularga zaxira tashkil etish banklar uchun muhim hisoblanadi. To'g'ri zaxira tashkil etish va uni oqilona boshqarish tijorat banklarida moliyaviy resurslarning yetishmasligini oldini oladi, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish esa bevosita bankning daromad keltiradigan operatsiyalariga yo'naltirilsa, bank uchun qo'shimcha daromad manbayi bo'lishi mumkin.



Bu birinchidan, banklarning harajatlarini kamayishiga xizmat qilsa, ikkinchidan banklar uchun qo'shimcha daromad va faoliyat ko'lamini kengaytiradi. Qolaversa, bu aholining ish bilan ta'minlashga, daromadlarini oshirishga va farovonligiga xizmat qiladi. Zaxiralarni belgilangan me'yordan kam miqdorda tashkil etish esa bankning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir etishi mumkin, ya'ni me'yordan kam miqdorda tashkil etilgan zaxira muammoli kreditlardan keladigan zararlarni qoplashga yetmasligi mumkin. Bundan tashqari mazkur zaxiralar soliqlar va dividendlarga ham ta'sir qiladi. Zaxiraning ko'p miqdorda tashkil etilishi soliqlar va dividendlar miqdorini kamayishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida qimmatli qog'ozlarga bo'lgan ishonchni pasaytiradi va fond bozorining sustlashishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bugungi kunda ular faoliyatini rivojlantirish, uchrayotgan muammolarni vaqtida aniqlab bartaraf etish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda bugungi kunda tijorat banklarida kreditlarni tasniflash va ularga zaxiralar yaratish mexanizmini takomillashtirish muhimdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining asosiy maqsadi yuqori daromad olishga qaratilgandir. Buning uchun esa bank moliyaviy jihatdan barqaror bo'lishi, doimiy va muntazam daromad manbaiga ega bo'lishi talab etiladi. Bankning asosiy daromadi bu bevosita aktiv operatsiyalardan shakllanadi. Aktiv operatsiyalarning ichida ssuda(kredit) operatsiyalari asosiy o'rinni egallaydi. Bu shundan dalolat beradiki, kredit operatsiyalarining qay darajada tashkil etilganligi va holati bevosita bank aktiv operatsiyalari, qolaversa, bankning faoliyatini belgilab beruvchi muhim omildir. Bank aktivlarini doimiy tarzda nazorat qilib borish, muammoli aktivlarni o'z vaqtida aniqlash va ular bo'yicha tegishli choralar ko'rish har doim ham dolzarb masala hisoblanadi. Aktivlarni samarali tashkil etish va boshqarishda ularni tasniflash alohida ahamiyatga ega.

Tasnif, (arabcha saralash, tartibga solish) klassifikatsiya – ilm yoki inson faoliyatining biror sohasiga oid o'zaro bir xil tushunchalar. Tasnif har bir fanga xos muhim mantiqiy amal bo'lib, uning vositasida shu fan doirasida to'plangan bilimlar qat'iy tartibga solinadi. Tasniflash-davr o'tishi bilan o'rganilayotgan obyekt haqidagi bilimlarimizning rivojlanishiga mos ravishda takomillashtirib, tuzatilib, rivojlantirib boriladi. Tasniflash har bir tushunchaning tafakkur tizimidagi o'rnini aniqlab beradi. Tasniflash natijasida hosil bo'lgan bilim predmetning asosiy xususiyatlari hamda ular o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashga imkon yaratadi va bu bilimlar tartibga solingan hisoblanadi [2].

Fanda zaxira tushunchasi (fr. reserve g'amlab qo'yilgan narsa, lot. reservare – g'amlamoq, saqlamoq) yetarlicha keng foydalaniladi va u o'zining mohiyatiga ko'ra "Zaxira – ehtiyot qilib saqlangan narsalar (oziq-ovqat, pul, buyum, qurol-aslaha va b.)" [3] yoki "zarurat tug'ilganida ishlatish uchun g'amlab qo'yilgan biror narsa; zarur yangi materiallar, kuchlar olinadigan manba" ni bildiradi [4].

Bank ishida, bizning fikrimizcha, P.Rouzning zaxiralarga bergan ta'rifi klassik hisoblanadi. Unga ko'ra zaxiralar – bu "kutilmagan xarajatlar"ni qoplash uchun ishlatiladigan mablag'lardir. Bunda muallif ularga "sud tartibida undirilgan mablag'larni, hali e'lon qilinmagan dividendlarni to'lash uchun foydalaniladigan zaxiralar" to'lovini ham kiritadi [5].

Kredit tashkilotining zaxiralarni samarali va samarasiz deb tasniflash mumkin. Xususan, A. V. Belyakov "o'z egasiga noqulay voqealardan himoyalaniish, istalmagan oqibatlarni yumshatish" imkonini beruvchi xususiyatga ega zaxiralarni samarali zaxiralar toifasiga kiritadi. Bunda, uning ta'kidlashicha, "xo'jalik yurituvchi subyekt qanchalik ko'p samarali zaxiralarga ega bo'lsa, uning korxonasi shunchalik ishonchlidir" [6].

Ayrim mualliflar zaxira deganda moliyaviy resurslarning kafolatli likvidligini ta'minlash uchun ishlatiladigan aktivlarni tushunadilar. Masalan, Ch.Dj.Vulfelning fikricha, ayrim turdagi operatsiyalarni, xususan aktiv operatsiyalarni boshqarish turli likvidlik darajasiga ega aktivlar ajratilishini va berilgan darajada saqlab turilishini talab etadi: "Naqd shakldagi aktivlar birlamchi zaxira deyiladi" [7].

E. Ridning ta'kidlashicha, aktivlarni umumiy mablag'lar jamg'armasi modeli asosida yoki "banklar ichidagi banklar" metodi bilan boshqarish jarayonida birinchi navbatda birlamchi zaxiralar shakllanadi, ya'ni likvidlikni ta'minlash maqsadida qaytarib olinayotgan omontalarni to'lash va kredit olishga berilgan buyurtmani qondirish uchun zudlik bilan ishlatilishi mumkin bo'lgan aktivlar. Bu tijorat bankining likvidligini ta'minlovchi asosiy manba. Birlamchi zaxiralar tarkibiga g'aznadagi naqd pullar va cheklar, boshqa tijorat banklaridagi korrespondentlik hisob raqamlaridagi mablag'lar, ya'ni "Naqd pullar va to'lov xujjatlari" qismiga kiradigan aktivlar kiradi. Iqtisodiy tabiatiga ko'ra, bu funksional kassa likvid aktivlaridir [8].

Professor Sh. Z. Abdullayevaning ta'kidlashicha esa ishonchsiz kreditlarni qoplash uchun zarur bo'lgan rezerv fondlarini tashkil etish juda muhimdir, aks holda riskli kreditlarning yuqori darajasi bankning o'z mablag'larining ma'lum qismini yo'qotishga xavf tug'diradi. Bu esa o'z navbatida bankning to'lovga noqobilligiga olib keladi. Ba'zi hollarda banklar bo'yicha kredit qo'yilmalarining o'sish sur'atining pasayishi bir vaqtning o'zida kredit risklarining kelajakda pasayishi yoki barqarorlashuviga olib kelishi mumkin. Kreditlar bo'yicha zararlarni qoplash uchun tashkil qilinadigan rezervlar(zaxiralar) fondlari kredit risklarining o'ziga xos himoyachisi bo'lib xizmat qiladi [9].



TAHLIL VA NATIJALAR

Ssudalar bo'yicha mumkin bo'lgan yo'qotishlar uchun shakllantiriladigan zaxiralarning ahamiyati yana shundan iboratki, zaxiralarning tegishli ko'rsatkichlari tijorat banklarining reytingini baholashda qo'llaniladi.

Xalqaro amaliyotda banklar faoliyatining qiyosiy tahlilida zaxiralalar albatta ko'rsatish majburiy hisoblanadi. Masalan, xalqaro moliyaviy hisobotlar standartlariga (XMHS) ko'ra, taqqoslash quyidagi asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- Sof foiz daromadi;
- Ssudalar bo'yicha zararlarni qoplash uchun umumiy zaxira;
- Tijorat banklari bo'yicha zararlarni qoplash uchun zaxira;
- O'z mablag'larining umumiy summasi;
- Ma'muriy va operatsion xarajatlar;
- Pul va kredit investitsiyalari;
- Pul mablag'lari, ssuda va investitsiyalar qoldig'i.

Ushbu ko'rsatib o'tilgan yettita ko'rsatkichning ikkitasi zaxiralarga tegishli bo'lib, ular bank kredit portfelining sifatini aks ettiradi.

Zaxiralalar kredit tashkilotlarini kategoriyalar va tasnif guruhlariga kiritish jarayonida ularning moliyaviy ahvolini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zaxiralarni shakllantirishning muhimligi shundaki, banklar hali ssuda oluvchining to'lov qobiliyatini baholash to'g'risida axborot to'plash borasida reja asosida ish olib borishni o'rganganlaricha yo'q, mijozlarning tarixi va ularga doir hujjatlar to'plamini mufassal o'rganmaydilar.

Mamlakatimiz bank tizimining samaradorligini oshirish iqtisodiyotning real sektorini kreditlashda banklarning faol ishtirok etishi bilan bog'liqdir. Biroq, mamlakatimiz tijorat banklari kreditlash faoliyatini olib borishda bir qancha qiyinchilik va muammolarga duch kelmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda tijorat banklarini daromad keltiruvchi aktivlarining asosiy qismini tashkil etuvchi kreditlar orasida muammoli kreditlarning mavjudligi sezilarli bo'lmoqda.

Bugungi kunga kelib, tijorat banklari kredit portfelining ma'lum bir qismini muammoli kreditlar tashkil etadi. Iqtisodiy holatning yomonlashishi, ishlab chiqarish sur'atlarining pasayishi, qarzidor korxona to'lov qobiliyatining tushib ketishi an'anaviy tarzda tijorat banklarining muammoli kreditlari hajmining o'sishiga olib keladi.

1-jadval: Banklar tomonidan berilgan kreditlar va muammoli kreditlarning o'zgarishi dinamikasi¹

Davr	Jami kreditlar, mlrd so'm	Muammoli kreditlar, mlrd so'm	Muammoli kreditlarning ulushi, foiz
01.01.2021-y.	276 974,8	5 784,8	2,1
01.01.2022-y.	326 385,6	16 974,0	5,2
01.01.2023-y.	390 048,9	13 992,4	3,6

Tahlil qilingan davrda mamlakatimiz tijorat banklarining kredit portfeli 1,4 martaga o'sgan va 2023-yil boshiga 390 trln so'mdan oshgan. Shu bilan birga muammoli kreditlarning summasi ham keskin ortganligini ko'rishimiz mumkin. 2021-yilda 5,8 trln so'mdan iborat bo'lsa, 2023-yilga kelib deyarli 14 trln so'mga yetgan. Ayniqsa, 2022 yilda 16,9 trln so'mni tashkil etganligi bank tizimi uchun xavotirli signal hisoblanadi. Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi esa 2021-yil boshiga 2,1 foizni tashkil etgan, 2022-yilga kelib esa 3,1 foiz bandga oshgan va 5,2 foizga yetgan. Buning asosiy sababi 2021-yildagi Covid-19 pandemiyasi bilan bog'liq bo'lib, kredit oluvchilar moliyaviy holatining yomonlashishi va kreditni qaytarish bilan bog'liq imtiyozlar hisoblanadi. 2023-yilga kelib vaziyat biroz yaxshilanganligini ko'rish mumkin. Umuman olganda, bank tizimidagi muammoli kreditlarning holati qoniqarli, deb bo'lmaydi. Xalqaro ekspertlarning tavsiyasiga ko'ra, muammoli kreditlarning ulushi jamiga nisbatan 3 foizdan ortmasligi keltirib o'tiladi.


Iqtisodiy holatning yomonlashishi, ishlab chiqarish sur'atlarining pasayishi, qarzidor korxona to'lov qobiliyatining tushib ketishi an'anaviy tarzda tijorat banklarining muammoli kreditlari hajmining o'sishiga olib keladi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda muammoli kreditlar kelib chiqishining asosiy sabablari orasida quyidagilar ajratib ko'rsatiladi:

- qarzidorning pul oqimi va moliyaviy faoliyati ustidan nazoratning yetarli emasligi;
- qarzidor mijoz ishlab chiqarayotgan tovar yoki ko'rsatayotgan xizmatlar raqobatbardoshligining tushib ketishi yoki bozordagi o'rnining yomonlashishi;
- samarasiz marketing va sifatsiz boshqaruv;
- qarzidor moliyaviy holatining malakasiz tahlili;

¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

- kredit bo'limi hodimlarining qarzdor faoliyat yuritayotgan tarmoq xususiyatlarini hamda uning ehtiyojlarini yetarli darajada bilmaslik oqibatida kreditlashning noto'g'ri tashkil etilgani;
- kreditni so'ndirish davrida bank tomonidan monitoringni kuchsiz bo'lishi yoki umuman bo'lmasligi;
- garov ta'minotining yetarli emasligi;
- kreditni maqsadlilik tamoyilining buzilishi va b.

Muammoli kreditlarning yuzaga kelishida yana bir asosiy omil kredit portfel diversifikatsiyasining zaifligi hisoblanadi. Agar banklar ma'lum bir sohaga yoki tarmoqqa me'yordan ko'p kredit ajratsa, o'sha soha yoki tarmoqda bo'ladigan har qanday o'zgarish bankning moliyaviy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Quyidagi rasmda mamlakat bank tizimi kredit portfelining iqtisodiyot sohalari bo'yicha diversifikatsiyasi darajasi keltirib o'tilgan.



1-rasm: Banklar kredit portfelida iqtisodiyot sohalarining ulushi², 2023-yil boshiga foizda

Bank kredit portfelida sanoat sohasi yetakchi bo'lib, uning ulushi 32,5 foizni tashkil etgan. Oxirgi yillarda sanoat sohasining ulushi sezilarli darajada pasayganligini ko'rish mumkin. Xususan, 2019-yilda sanoatning ulushi deyarli 40 foizni tashkil etgan. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar ulushi esa 25,9 foizga yetgan. So'nggi yillarda jismoniy shaxslarni kreditlash keskin ko'paygan. 2019-yilda jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar jamiga nisbatan 14,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 11,4 foiz bandga oshgan. Shuningdek, qishloq xo'jaligi 10 foiz atrofida, savdo va umumiy ovqatlanish hamda transport va kommunikatsiya o'rtacha 7 foizni tashkil etmoqda.

Xulosa qilishimiz mumkinki, oxirgi yillarda bank tizimi kredit portfelining diversifikatsiya darajasi oshib bormoqda.

2-jadval: Iqtisodiyot sohalari bo'yicha kreditlarning tasnifi³, 2023-yil boshiga foizda


No	Sohalar	Standart	Substandart	Qoniqarsiz	Shubhali	Umidsiz
1	Sanoat	31,7	39,1	28,3	31,7	18,9
2	Qishloq xo'jaligi	10,6	11,9	12,3	12,3	9,1
3	Transport va kommunikatsiya	8,0	5,8	2,0	3,6	7,0
4	Qurilish sohasi	2,4	3,6	7,0	7,1	3,4
5	Savdo va umumiy xizmat	6,9	9,1	11,9	11,8	15,1
6	Moddiy-texnik ta'minot	1,0	0,9	0,5	1,0	0,8
7	Uy-joy kommunal xizmati	0,4	0,5	2,3	1,2	0,9
8	Boshqa sohalar	10,5	20,4	10,4	7,4	10,0
9	Jismoniy shaxslar	28,3	8,7	25,3	23,9	34,8
	Jami kredit va lizing summasi	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

² O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari



Mamlakat bank tizimi qonunchiligiga ko'ra, qoniqarsiz, shubhali va umidsiz deya tasniflangan kreditlar muammoli kreditlar deyiladi. Iqtisodiyot sohalarida kreditlarning sifati bo'yicha tasnifini tahlil qiladigan bo'lsak, muammoli kreditlar tarkibida sanoat va jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar yetakchilik qilmoqda. Ushbu sohalarning umumiy kredit portfelidagi ulushi kattaligini hisobga olsak, bank tizimida muammoli kreditlar bilan bog'liq vaziyat jiddiy ekanligidan dalolat beradi. Xususan, qoniqarsiz kreditlar tarkibida sanoatning ulushi 28,3 foiz, jismoniy shaxslar 25,3 foiz, shubhali deya tasniflangan kreditlarda mos ravishda 31,7 va 23,9 foiz hamda umidsiz kreditlar tasnifida 18,9 foiz va 34,8 foizni tashkil etgan.



2-rasm: Ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxiralar harakati⁴, mlrd so'mda

“Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida”gi Nizomga⁵ asosan banklar har bir tasnif uchun kredit qoldig'i summasiga nisbatan tegishli miqdorda zaxira tashkil etishi lozim. Unga ko'ra, standart kreditlar – 1 foiz, substandart kreditlar – 10 foiz, qoniqarsiz kreditlar – 25 foiz, shubhali kreditlar – 50 foiz va umidsiz kreditlar – 100 foiz zaxira tashkil etishlari majbur etib belgilangan^[10].

Tashkil etilgan zaxiralarning summasi oxirgi yillarda keskin ortgan bo'lib, ayniqsa, 2021-yilda 1,5 martaga oshgan va 10 trln so'mni tashkil etgan. Buning asosiy sababi sifatida COVID-19 pandemiyasining salbiy oqibatlarini keltirish mumkin. 2023-yilga kelib 11,1 trln so'mga yetgan.

XULOSA

Bank tomonidan shakllantiriladigan zaxiralarning aynan tizim sifatida tushunilishi ulardan moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun kompleks foydalanish zaruratini ifodalaydi.

Zaxira yaratishdan umumiy maqsad daromadning bir qismini darhol taqsimlashdan ushlab qolish va uni kelajakdagi ko'pincha mavhum moliyaviy muammolarni hal qilish uchun saqlab qo'yishdan iborat. Zaxira rejalashtirilgan xarajatlar kutilgandan ortib ketganda ham, rejalashtirilgan davrda daromad pasayib ketishini kompensatsiya qilish uchun ham kerak bo'lishi mumkin. Shuningdek, zaxiralar moliyaviy mablag'lar uzilishlar bilan kelib tushayotganda, ularga bo'lgan talabga mos kelmaganda ham yaratiladi.

Zaxiralar tijorat banklarining moliyaviy holatiga bevosita ta'sir etishi mumkin. Ularning noo'rin yoki asossiz o'sishi bank barqarorligi va rentabelligining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Mamlakatimiz tijorat banklarida kreditlarni tasniflash va muammoli kreditlarga zaxira tashkil etish qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi. Uning me'yoriy-huquqiy asoslari yaratilgan bo'lib, bular O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi, O'zbekiston Respublikasi “Markaziy banki to'g'risida”gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi Qonun hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qator me'yoriy hujjatlarida o'z aksini topgan.

4 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

5 <https://lex.uz/docs/2703053>



Banklarda tashkil etiladigan zaxiralardan samarali foydalanish uchun quyidagi takliflarni keltirib o'tish maqsadga muvofiq:

- banklar tomonidan kredit portfelining sifatini doimiy tarzda nazorat qilib borish va belgilangan me'yoriy darajalarga qat'iy amal qilinishini ta'minlash;
- muammoli kreditlar bilan ishlash tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda xorij amaliyotidan unumli foydalanish;
- banklarning moliyaviy barqarorligini aniqlashning stress-test o'tkazish tizimini takomillashtirib borish;
- banklarning moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlariga ehtimoliy yo'qotishlar uchun tashkil etilgan zaxiralarning ta'sirini ekonometrik tahlillar orqali ta'sir etishini aniqlab borish.

Ushbu takliflarning amaliyotga qo'llanilishi banklarning moliyaviy barqarorligini oshirishga, bank risklarini kamaytirishga va muammoli kreditlarni oldini olishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentiing 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 8-tom. – T., 2002. – 293 b.
3. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 8-tom. – T., 2002. – 694 b.
4. Bolshoy ekonomicheskij slovar / Pod red. A.N.Azriliyana. – M.: Institut novoy ekonomiki, 2002. – 881 s.
5. Rouz Piter S. Bankovskiy menedjment. // Per. s angl. – M. "Delo", 1997. – 449 s.
6. Belyakov A. V. Bankovskie riski: problemy uchyota, upravleniya i regulirovaniya. – M. BDS-Press, 2003. – 142 s.
7. Charlz Dj. Vulfel. ensiklopediya bankovskogo dela i finansov. // Per. S angl. – M.: Korporatsiya "Fedorov", 2000. – S. 1087.
8. Rid E. i dr. Kommercheskie banki. – M.: SP "Kosmopolis", 1991. – 124–131-b.
9. Abdullaeva Sh. Z. Bank risklari va kreditlash. – T.: Moliya, 2002. – 187 b.
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

